



Gulshoda MIXLIYEVA,
Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
E-mail: gulizaripova0757@gmail.com

FarDTU katta o'qituvchisi, PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

ERKINLIK VA MAS'ULIYAT: INSON HAYOTINING AJRALMAS QADRIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola erkinlik tushinchasining mazmun mohiyati, inson hayotidagi o'rni va mas'uliyat bilan bog'liqligi yoritib berilgan. Shuningdek, erkin jamiyat barpo etishda barkamol shaxs va komil inson tarbiyasining ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Maqolada erkinlik va mas'uliyat orasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan

Kalit so'zlar: Erkinlik, ichki erkinlik, mas'uliyat, tanlov erkinligi, ma'naviyat, jamiyat.

FREEDOM AND RESPONSIBILITY: INTEGRAL VALUES OF HUMAN LIFE

Annotation

This article highlights the essence of the concept of freedom, its place in human life, and its connection to responsibility. Also, the importance of raising a harmoniously developed personality and a perfect person in building a free society was discussed. The article reveals the organic connection between freedom and responsibility.

Key words: Freedom, inner freedom, responsibility, freedom of choice, spirituality, society.

СВОБОДА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: НЕРАЗРЫВНЫЕ ЦЕННОСТИ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В данной статье раскрывается сущность понятия свободы, ее роль в жизни человека и ее связь с ответственностью. Также говорится о важности воспитания гармонично развитой личности и совершенного человека в построении свободного общества. В статье раскрывается органическая связь между свободой и ответственностью.

Ключевые слова: Свобода, внутренняя свобода, ответственность, свобода выбора, духовность, общество.

Kirish. Necha ming yillar mobaynida insoniyat erkinlikka, ozodlikka intilib kelgan. Erkinlik uchun kurashish yo'lida qanchadan-qancha qonli urushlar, xalq qo'zg'olonlari bo'lgan. Ko'plab mutafakkirlar, olim-u ulamolar, badiiy ijod namoyandalari komil insonni tarbiyalash, erkin jamiyatni qanday qurish to'g'risida o'z fikrlarini bildirganlar. Inson erkinligi, birinchi navbatda, odamlar yer yuzidagi boshqa turlarga qaraganda yaxshiroq bo'lgan qobiliyatni amalga oshirishi demakdir.

Keng ma'noda erkinlik – bu o'zi xohlagan narsani qiladigan, har qanday begona cheklovlardan mustaqil ravishda o'z xatti-harakatlarini boshqaradigan shaxsning holati tushiniladi. Bunday subyekt o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va ular uchun javobgarlik g'oyasini anglatadi. Erkinlik nafaqat shaxsning tanlash, yaratish imkoniyati borligini, bu borada sun'iy cheklovning yo'qligini, shuningdek u o'z xatti-harakatlari oqibatlarini uchun javobgar bo'lishi kerakligini ham anglatadi. Erkin bo'lish – aql amriga muvofiq yashashdir. "Erkinlik" atamasiga falsafiy lug'atlarda odatda shunday izoh beriladi: "Erkinlik"- insonni oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida o'z niyatlarida, xohish-istaklari va manfaatlariga mos tarzda faol harakat qilish qobiliyatidir"[1].

Erkinlikning yetishmasligi juda og'riqli tajriba bo'lib, siyosiy jihatdan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz ko'pincha katta erkinlikdan to'lib-toshganimizni his qilamiz va aslida undan azob chekamiz. Erkinlik yetuklikni talab qiladi. Shuning uchun erkin bo'lish mas'uliyatli bo'lish demakdir desak yangilishmagan bo'lamiz. Darhaqiqat, mas'uliyat deganda u javob berishi va javobgarlikni o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan harakatlarni erkin bajaradigan shaxsni holati tushiniladi. Erkinlik mas'uliyat bilan birga keladi va Jon –Pol Sartr ta'kidlaganidek, bu qo'rquvni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun biz erkinlikni qadrlidi deb bilishimiz, uning asosida rivojlanish uchun turli xil shartlarga muhtojimiz va amaliy hayotda mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak. Chunki yetuklik va axloqiy meyorlarsiz erkinlik bo'sh bo'lib qoladi. Shuning uchun erkinlik va

mas'uliyat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Faqat erkin odamlar sifatida biz mas'uliyatli va mustaqil bo'lishimiz mumkin. Aksincha, biz avtonomiyani rivojlantirsak va undan foydalana olsak, bizning erkinligimiz boyib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Erkinlik qadim qadimdan buyon hammani ohanrabodek o'ziga tortib keladi. VI – VII asrlarda yaratilgan To'nyuquq bitiktoshida Vatan tushunchasi, vatanparvarlik va erk g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Xalq o'z erkini himoya qilmasa, u og'ir fojialarga, hatto yo'qlikka yuz tutishi mumkinligi yodnomada shunday tasvirlanadi: "Xoningni qo'yib taslim bo'lding. Shuning uchun tangri "o'!" degan,, shekilli, turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi. O'z xonini qo'yib, Tabg'ach xoqoniga sajda qilgani tangriga ham xush kelmadi. Ularni har tomonga tarqatib yubordi. Turk xalqi yerida biror ulug' qolmadi. Chakalak orasida qolgan yetti yuz nafar bo'ldi"[2]. Erkinlik xalqni ozod etish va birlashtirish yo'lidagi eng muhim asos sifatida qaraladi. "Erkinlik xalqning shunday bir farzandidirki unga qon to'kish, zaxmat va mashaqqat tufayligina erishiladi" degan hikmat keltirilgan [2]. Chuqurroq o'ylab qarasa insoniyat tarixi ham alohida inson hayoti ham aslida erkinlik uchun kurashdan iborat ekaniga ishonch hosil qilamiz. Biroq u amaliyotda hamma vaqt ham ijobiy hodisa sifatidagi mohiyatini saqlab qololmaydi. Bu haqda buyuk olmon faylasufi V.Vindelband shunday deb yozadi. "Aslida esa tarixda erkinlik nomi ostida ko'p ulug' ishlar amalga oshirilgan, lekin aynan shu nom bilan qanchadan qancha gunohlar qilingan. Har bir kishining hayoliga kelganida yuragi dukkilab urib ketadigan shu nom bilan qanchadan qancha jinoyatu nodonliklar, ehtiros aldoviyu so'qirliklar o'zini bezadi va bezamoqda" [1] deydi. V.Vindelbandning qachonlardir bildirgan mazkur fikrini bugungi kunda ham o'z ma'nosida qo'llash mumkin. Inson huquq va erkinliklariga ustuvorlik berish shiori osida kechayotgan jarayonlar buning yorqin isboti bo'la oladi. Inson paydo bo'lgandan to bugungi kungacha insonlar erkinlik uchun kurashishdi, qanchadan qancha insonlar uning uchun jon berishdi. Qanchadan qancha insonlar erkinlik hatto nima ekanligini bilmay o'tishdi.

V.Vindelband fikrini davom ettirib, erkinlik atamasining mazmuni siyosat va falsafa olamida hozirgacha turli xil bo'lib kelayotganini, "haqiqiy erkinlik" tushunchasi esa, nimani anglatishi hali ham ayon emasligini aytib o'tadi.

Bunday "tushunmovchiliklar"ning sababi shundaki, inson erkinligi hech qachon yolg'iz, alohida olingan erkinlik bo'lolmaydi, u, buyuk fransuz mutafakkiri Jan-Pol Sartr aytganidek, erkinliklar ro'parasidagi erkinlikdir; "Albatta, erkinlik insonning belgisi sifatida boshqalarga bog'liq emas, biroq, harakat boshlandimi- bas, men o'z erkim bilan birgalikda boshqalarni erkinligini ham o'zimga maqsad deb bilganimdagina o'z erkimni maqsad sifatida qabul qilsam bo'ladi", - deb yozadi Sartr [1].

Darhaqiqat, hayotda insoniy "men" "sen"ning erki bilan - bevosita, "u"ning erki bilan - bilvosita doimiy munosabatga kirishishga majbur. Natijada mening erkinligim o'zga erkinliklari uchun, o'zga erkinliklar mening erkinligim uchun zaruriyat vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, erkinlik hech qachon mutloqlik kasb etolmaydi, uni doim zamon, makon, inson va narsalar erkinligi- boshqa erkinliklarni cheklab turadi; inson butunlay erkinlikka erisholmaydi, faqat nimadandir, qaysidir bir narsadagina erkin, ozod bo'lishi mumkin. Masalan, sport musobaqalarida universitet sharafiga himoya qilish uchun boshqa shaharga borgan talaba darslarga qatnashish majburiyatidan ozod qilingan, lekin u darslarga nisbatan erkinlikka ega bo'lgani holda, butunlay erkin emas- sport musobaqalarida qatnashish majburiyatini olgan. Shunday qilib, bir erkinlikning qo'liga kiritilishi ikkinchi erkinlikdan - sport musobaqalarida qatnashmaslik erkinligidan voz kechishga olib keladi. Demak, bir tomondan erkinlik zaruriyatsiz, zaruriyat esa, erkinliksiz mavjud emas, ikkinchi tomondan, shuning uchun ham, har qanday erkinlik cheklangan holdagina voqea bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Ayni paytda erkinlik har bir hodisada muayyanlashish tabiatiga ega. Shu jihatdan olib qaraganda, hayotda uning yuzlab turini uchratishimiz mumkin; siyosiy erkinlik, iqtisodiy erkinlik, matbuot erkinligi, fikr erkinligi va hokozolar. Lekin bularning hammasini ikki katta guruhga ajratish mumkin; birinchisi- shaxs erkinligi, u individni o'z xohish-istaklari va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi - jamoaviy erkinlik, u jamiyat, mamlakat, millat, xalq singari jamoaviy birlashmalarga taalluqli yakkalikda umumiylik aks etgan hodisa. Har ikki turdagi erkinlik aslida ijobiy mohiyatga ega, ijobiy bo'lganda ham muqaddaslik darajasiga ko'tarilgan holat tarzida qabul qilinadigan erkinlikdir. Chunonchi, shaxs erkinligi insonning qul emasligini, mamlakat erkinligi Vatanning mustamlaka emasligini anglatadi.

Biroq, ayni paytda, har ikki turdagi erkinliklar erksizlikni barqaror qilish uchun niqob vazifasini o'tashi ham mumkin. Vindelband aytganidek, ne-ne gunohlar-u, ne-ne yovuzliklar shu muqaddas so'z bahonasida amalga oshiriladi. Masalan, hozirgi paytda aksariyat ommaviy axborot vositalaridagi jurnalistlar so'z erkinligi bahonasida boshqalarning shaxsiy hayotiga aralashayotganiga ko'pchiligimiz guvohimiz. Yoki Amerika Qo'shma Shtatlari erkinlik o'rnatish bahonasida Iroqqa bostirib kiradi va hozirgacha u yerda tom ma'nodagi osoyishtalik qaror topgani yo'q. Birinchi hodisada jurnalistning maqsadi-birovlarning sharmanda qilish orqali mo'mayroq pul ishlash. Ikkinchi hodisada esa, maqsad- bir buyuk davlat boshqa kichikroq davlatga so'zini o'tkazish, uning yoqilg'i xaziralaridan bemalol foydalanishi uchun o'ziga imkoniyat yaratish. Totalitar tuzumlar uchun ham erkinlik niqob vazifasini o'taydi. Ularning dohiylari xalqlarni siyosiy ayblovlar, qatag'onlar va ijtimoiy yolg'on yordamida erksizlikni erkinlik deb etirof etishga majbur qiladilar. Bunga isbot tariqasida XX asrdagi sho'rolar va fashistlar diktaturasini eslashning o'ziyoq kifoya. Shu o'rinda fransuz qomusiy allomasi D.Didroning fikrlarini eslab o'tmaslikning imkoni yo'q, "erkinlik samoviy in'omdir va har bir shaxs undan aqlini ishlata boshlashi bilanoq foydalanish huquqiga ega" [3].

Xo'sh, erkinlik erksizlikning niqobiga aylantirilib, poymol etilmasligi uchun nima qilish lozim? Inson erkin yashay olishi mumkinmi? Erkin inson qanday bo'lishi kerak? Bu savollarga bitta javob bor: inson yuksak axloq egasi darajasiga ko'tarilgandagina,

Kant aytganidek, o'zini-maqsad, boshqalarni-voqea deb qarashdan voz kechgandagina haqiqiy erkinlikka erishadi.

Jamiyat a'zolari sifatida biz o'z erkinligimizni va hayotimizni shakllantiradigan qarorlar qabul qilish qobiliyatimizni qadrlashimiz kerak. Rivojlanayotgan jamiyatda erkinlik va ma'suliyat o'rtasida har doim muvozanat bo'lishi kerak. Bu muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki u odamlarning o'z harakatlari uchun mas'ul bo'lishini va ularning tanlov jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlaydi. Faylasuf Aristotel "yaxshi hayotga erishish uchun odamlar yaxshi harakat qilishlari kerak va ular o'z qilmishlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari, jamiyatga foyda keltiradigan qarorlar qabul qilishlari kerak" degan fikrlarni bildirdi. Boshqa tomondan, Jan-Jak Russo "erkinlik eng oliy maqsad va odamlar ularning oqibatlaridan qat'iy nazar qaror qabul qilishga ruxsat berishi kerak" deb hisoblaydi.

Erkinlik va mas'uliyat ba'zida bir-biriga zid keladi. Misol uchun, odamlar o'zlari istagan narsani qilish erkinligiga ega bo'lishini xohlashlari mumkin, lekin ular bu erkinlik bilan birga keladigan mas'uliyatni xohlamasliklari mumkin. Bu mojaro jamiyatda jinoyat ko'payishini keltirib chiqaradi. Yuqorida aytganimizdek erkinlik va mas'uliyat bir tanganing ikki tomoni bo'lib, birisiz ikkinchisiga ega bo'lib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari sifatida o'z erkinligimiz va hayotimizni belgilovchi qarorlarni qabul qilish qobiliyatimizni qadrlaymiz va erkinlik mas'uliyat bilan birga kelishini ham anglab yetganmiz. Jamiyatda erkinlik va mas'uliyat o'rtasida muvozanat bo'lishi kerak. Bu muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u jamiyat azolarining o'z harakatlari uchun mas'ul bo'lishini va ularning tanlovi jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlaydi. Ayni paytda erkinlik har bir hodisada muayyanlashish tabiatiga ega. Shu jihatdan olib qaraganda, hayotda uning yuzlab turini uchratishimiz mumkin; siyosiy erkinlik, iqtisodiy erkinlik, matbuot erkinligi, fikr erkinligi va hokozolar. Lekin bularning hammasini ikki katta guruhga ajratish mumkin; birinchisi- shaxs erkinligi, u individni o'z xohish-istaklari va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi - jamoaviy erkinlik, u jamiyat, mamlakat, millat, xalq singari jamoaviy birlashmalarga taalluqli yakkalikda umumiylik aks etgan hodisa. Har ikki turdagi erkinlik aslida ijobiy mohiyatga ega, ijobiy bo'lganda ham muqaddaslik darajasiga ko'tarilgan holat tarzida qabul qilinadigan erkinlikdir. Chunonchi, shaxs erkinligi insonning qul emasligini, mamlakat erkinligi Vatanning mustamlaka emasligini anglatadi. Inson har taraflama mukammal shakllanishi va komillikka erishishi uchun jamiyatda ma'naviyat yuqori cho'qqiga qo'yilgan bo'lishi lozimdir. Zero inson shu ma'naviyati yuksak jamiyat bilan birga shakllanadi va bu jamiyatda tarbiyalangan insonlar jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Har doim jamiyatdagi o'zgarishlar muqarar ravishda ma'naviyatga, ma'naviyatdagi o'zgarishlar esa jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazishadi. Erkinlik qaror topgan jamiyatdagina ma'naviy rivojlanish uchun shart-sharoit yuzaga keladi. Erkinlik bo'lmagan joyda esa asta-sekin ma'naviy rivojlanish to'xtaydi. Shu nuqati nazardan qaraganda erkinlik va ma'suliyat ma'naviyat rivojlanishning ikki muhim asosi, ya'ni atributi hisoblanadi. Shuning uchun ham inson va jamiyat har doim erkinlikka intiladi.

Jamiyatning har bir fuqarosi jamiyat yaratib bergan erkinlikdan kelib chiqqan holda ma'suliyatni his qilishi zarur. Kimki o'z erkinligi qadriga yetmay davlat qonunlarini buzadigan, jinoyat qiladigan bo'lsa, unga davlat ma'muriy yoki jinoyat jazo qo'llaydi. Bu bilan davlat jinoyat qilgan fuqarosini ma'lum muddat erkinliklaridan mahrum qiladigan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, jamiyat boshqa a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Javobgarlikka tortilgan inson jazo muddati davomida jamiyat va davlat bergan erkinliklarining ma'nosiga yetib, aql bilan ish ko'rib, ma'suliyatli bo'lishga harakat qiladi. Erkinlikni qadriga yetish, uni to'g'ri anglay bilish uchun insonga ma'suliyat tuyg'usi, idrok va tafakkur kerak. Biz buni faqat bir taraflama ko'rib chiqmasligimiz kerak. Insonlarning erkin bo'lishi, erkinlikni to'g'ri anglay bilishi va ma'suliyatli bo'lishi uchun jamiyatning ham o'rni katta. O'lah barcha mavjudotlarni o'ziga xos betakror xil-xususiyatlar bilan san'atkorona yaratdi, ammo baridan insonni sharif etdi, hatto

farishtalarga-da isonga sajda qilish buyurildi. O'z yaralish mohiyatini anglagan, yaratuvchisini tan olgan va unga manzur bo'lishga intilib yashagan inson bariga amal qiladi. Inson o'z hayoti faoliyati davomida bosqichma bosqich turli mazmun va ko'rinishdagi ma'suliyatlarni bajarib o'taveradi: farzandlik ma'suliyati, ota-onalik, opa-singillik, aka-ukalik, eru xotinlik –oila ma'suliyati, mahalladoshlik ma'suliyati, o'quvchilik, shogirdlik, ustozlik, kasb-hunar, mansab-lavozim ma'suliyati va h.k. Nihoyatda rang-barang va bitmas-tuganmas ma'suliyatlar yuzlashadi bir insonning bir umrida. Ana shu ma'suliyatdan burch va vazifalar bunyod bo'ladi va ado etiladi. Jamiyatdagi turli jarayonlarni tebratayotgan turli toifa va manzildagi, turli yosh va sharoitdagi insonlar har biri o'z ma'suliyatini anglab, o'z vaqtida ado etib yashashga erishsa, jamiyat taraqqiyoti ilgariyladi va ma'naviyati yuksaladi.

Demak, ma'suliyat jamiyatda ixtiyoriy tarzda talab qilingan ishni bajarishdir. Bu jamiyat qanday bo'lsa ham uning talablarini bajarish kerak degani emas. Balki jamiyat tazyiqlarga asoslangan totalitar jamiyat bo'lishi mumkin. Qachonki jamiyat yaxshi bo'lsa, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarga asoslangan bo'lsa, jamiyat talab qilgan har bir narsaga, har bir ishga ma'suliyat bilan yondashish kerak bo'ladi va shu bilan birga jamiyat ham insonlarga shart-sharoit va erkinlikni yaratib beradi.

Ma'suliyat eng avvalo zrratni bilib olishdir. Ma'suliyat insondan faollikni talab qiladi. Jamiyatda yashovchi fuqarolar jamiyat bergan erkinkiklarni to'g'ri anglab yetmasa, o'z imkoniyatlarini suistemol qilishsa, jamiyat yaratib bergan erkinliklarga ma'suliyat bilan yondashishmasa, jamiyat tanazzulga yuz tuta boshlaydi. O'qituvchilar o'quvchilarga dars o'tib, bilim berish ma'suliyatini his etmay, darsni yaxshi o'tmasa, o'quvchilar bilim, ma'naviy rivojlanishi pasayib boraveradi. Bunga yana oddiy bir misol keltirib o'tsak. Darsga kelgan o'quvchi "men erkin insonman, xohlagan paytim darsga kiraman" deb darsga qatnashmadi. O'qituvchi bu o'quvchini darsga kelmayotganini surishtirmadi. Ota-ona farzandini qachon o'qishga borib, qachon kelayotganini, nima yumush bilan mashg'ulligini e'tiborga olmadi. Natijada jamiyatda bitta savodsiz fuqaro ko'paydi. Xo'sh, bunga kim aybdor? O'z erkinligini to'g'ri anglab yetmagan o'quvchimi? O'z ishiga ma'suliyatsiz bo'lgan o'qituvchimi, yoki o'z farzandini ertangi kelajagini o'ylamay, farzandini nazoratsiz qoldirgan ota-onami? Bunday ma'suliyatsizlik oqibatda jamiyat rivojini jar yoqasiga olib borib qo'yadi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, ma'naviy rivojlanishning pastligi davlatning moddiy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. O'qituvchilarning o'z ishiga ma'suliyatsizligi tufayli chalasavod yoshlar ko'payaversa, o'quvchilar bilim o'rganish o'rniga, biz erkinimiz deb o'z erkinligini turli buzg'inchiliklar bilan jamiyatga zarar ketiradigan ishlarga sarflayaversa, ma'suliyatni his qilmasa, oxir oqibatda, jamiyatga foydasi tegadigan, uni rivojlantirishga o'z hissasini

qo'shadigan, erkinligini yanada o'stirishga harakat qiladigan, ma'suliyatli, jamiyatda faol fuqaro o'rniga, balki, qing'ir ishlarga moyil, hayotda o'z o'rnini topolmagan, fikriy va ma'naviy qoloq qaram yoshlar ko'payadi.

Jamiyatning har bir fuqarosi jamiyat yaratib bergan erkinlikdan kelib chiqqan holda ma'suliyatni his qilishi zarur. Kimki o'z erkinligi qadriga yetmay davlat qonunlarini buzadigan, jinoyat qiladigan bo'lsa, unga davlat ma'muriy yoki jinoyat jazo qo'llaydi. Bu bilan davlat jinoyat qilgan fuqarosini ma'lum muddat erkinliklaridan mahrum qiladigan bo'lsa, ikkinchi tarafdan, jamiyat boshqa a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Javobgarlikka tortilgan inson jazo muddati davomida jamiyat va davlat bergan erkinliklarining ma'nosiga yetib, aql bilan ish ko'rib, ma'suliyatli bo'lishga harakat qiladi. Erkinlikni qadriga yetish, uni to'g'ri anglay bilish uchun insonga ma'suliyat tuyg'usi, idrok va tafakkur kerak. Biz buni faqat bir tarafdama ko'rib chiqmasligimiz kerak. Insonlarning erkin bo'lishi, erkinlikni to'g'ri anglay bilishi va ma'suliyatli bo'lishi uchun jamiyatning ham o'rnini katta.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, erkinlik bu insonga xos bo'lgan tushunchadir. Erkinlik eng avvalo erkin tanlash, turli variant va imkoniyatlardan erkin tanlash, ma'lum zaruriyatni bilib olish va shu zaruriyat orqali harakat qilishdir. Erkinlik o'z navbatida ichki erkinlik va tashqi erkinlikdan iborat bo'ladi. Ichki erkinlik insonning o'zligini namoyon qiluvchi imkoniyatlarni salohiyati, tashqi erkinlik bu- jamiyat yaratib bergan shart-sharoitlardir.

Erkinlik bu- iroda erkinligi, tanlash erkinligi, lekin shu bilan bir qatorda erkin tanlangan narsani amalga oshirish uchun ma'suliyat tuyg'usi hamdir. Ma'suliyatsiz erkinlik mavjud bo'lmaydi. Har qanday haq-huquq beriladigan bo'lsa uning zimmasiga qandaydir vazifa, ma'suliyat yuklanadi. Shuning uchun erkinlik va ma'suliyat bir-birini taqozo etuvchi dialektik birlikni tashkil etuvchi tushunchalardir.

Erkinlikning alohida o'zi mavjud bo'lmaydi. U doim ma'suliyat bilan birga namoyon bo'ladi. Erkinliksiz ma'suliyat va ma'suliyatsiz erkinlik bo'lmaydi. Jamiyatda insonning erkinligi qanchalik ko'paysa, uning ma'suliyati ham shunchalik ortib boraveradi. Mas'uliyat eng avvalo zaruratni bilib olishdir. Mas'uliyat insondan faollikni talab qiladi. Jamiyatda yashovchi fuqarolar jamiyat bergan erkinliklarni to'g'ri anglab yetmasa, o'z imkoniyatlarini suistemol qilishsa, jamiyat yaratib bergan erkinliklarga ma'suliyat bilan yondashishmasa, jamiyat tanazzulga yuz tuta boshlaydi. O'qituvchilar o'quvchilarga dars o'tib, bilim berish ma'suliyatini his etmay, darsni yaxshi o'tmasa, o'quvchilar bilim, ma'naviy rivojlanishi pasayib boraveradi. Shuning uchun ham jamiyatda erkinlikni ko'ngil tusagan ishni qilish, tiyiqsizlik degan bir yoqlama fikrlovchi shaxslarni emas, erkinlik eng avvalo ma'suliyat ekanligini his qila oladigan insonlarni shakllantirishimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. www.ziynet.uz
2. Abdurashid Abdurahmonov. "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" T:2005, 277-b
3. Abdurashid Abdurahmonov. "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" T:2005, 277-b
4. Istoriya politicheskix ucheniy/ Pod red.O.V.Martishina.M.1996.Vip.2.S.61-67-b
5. Mirziyoyev.SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T: "O'zbekiston" 2016
6. Mirziyoyev.Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.T:2017 4-5-b
7. Sh.Mirziyoyev."O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi."Uza.uz.2019y 1 sentyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi. Islom Karimov - Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi. -T.: Islom Karimov nomidagi respublika Xayriya jamoat fondi 2018.
9. Erkayev.A. Ma'naviyat va taraqqiyot.T: 2009 388-b
10. Erkayev.A. Zohiriy va botiniy erkinlik. "Tafakkur" 2018.N3.
11. Erkayev.A. Milliy jipslik omillar.Tafakkur jurnali. 2010. 13-14-b
12. Vorontsov. V. "Tafakkur gulshani. Toshkent, 1981. 129-bet].